

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK MUHITIDAGI STRATEGIK TENDENSIYALAR

A.A. Bekmurodov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Bank ishi” kafedrası assistenti
abbos85@umail.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada zamon talabi bilan o‘zgarib borayotgan tijorat banklarini transformatsiya jarayonlarining hozirgi kun holati va muammolari va xulosalar, tavsiya va takliflar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: platforma, raqamli platforma, avtoto‘lov, bankomat, mobil banking, moliyaviy xizmatlar, raqamli bank, chakana bank xizmatlari, bank xizmatlari ofis, masofadan identifikatsiya qilish, bank xizmatlari ofislari.

ABSTRACT

The article discusses the current state and problems of the transformation processes of commercial banks, which are changing with the times, as well as conclusions, recommendations and suggestions.

Keywords: platform, digital platform, auto payment, ATM, mobile banking, financial services, digital banking, retail banking, banking services office, remote identification, banking services offices.

Bugungi dunyo biznesda tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Kecha talabga ega bo‘lgan va ishlagan narsa bugungi kunda ahamiyatsiz bo‘lib qolmoqda. To‘yingan bozor, yuqori raqobat, mijozlar talablari — biznesni raqamli transformatsiyasiga bo‘lgan zaruratining ba’zi sabablaridan hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish bugun kirib kelayotgan kelajakka qadamdir.

Bank faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda samaradorlikni oshirishdagi asosiy omillardan biri ekanligi xech kimga sir emas. Bu borada quyidagi masalalarni ko‘rib chiqib fikrlarimizni asoslashga harakat qilamiz:

-birinchidan, ilmiy manbalar tahlil asosida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlash;

-ikkinchidan, chakana bank xizmatlarini mijozlarga taqdim etish kanallaridagi mavjud holat tahlilini amalga oshirish;

-uchinchidan, chakana bank xizmatlarini taqdim etish borasida mavjud muammolarni aniqlash.

Belgilab olingan birinchi masala yuzasidan shuni qayd etish lozimki, chakana bank xizmatlarini taqdim etish kanallarini rivojlantirish masalalari ma'lum xususiyatlari va yo'nalishlari ko'plab mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, O.A.Popovaning "Plaformalar konsepsiyasi asosida innovatsion ekotizimni rivojlantirish jarayonlarni boshqarish" nomli ilmiy tadqiqot ishida¹xizmat ko'rsatish sohasida raqamli platformalar joriy etilishi yangi biznes-modellarni joriy etish orqali iqtisodiyot sohalari va bozorlarni transformatsiyalash imkoniyatini kengaytirishi, platformalar alohida olingan kompaniya doirasidan tashqariga chiqish hisobiga yangi shakldagi hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda raqobat afzalliklarini yaratishi, raqamli platformalar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish drayveriga aylanganligi, shuningdek, platformalarning o'zi doimiy o'zgarishda ekanligini qayd etib o'tgan. Shu bilan bir qatorda, ishda mazkur sohadagi asosiy muammolar texnologik platformalarni takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish bilan bog'liqlik ekanligi e'tirof etilgan. Bundan tashqari olim tomonidan raqamli platformalar samaradorligini baholashda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelgan:

$$E_{sp} = (Z_b - Z_n)N_n = [(S_b + Y_{e_{norm}}K_b) - (S_n + Y_{e_{norm}}K_n)] N_n$$

Bunda:

E_{sp} – raqamli platformani joriy etishdan olingan iqtisodiy samara;

Z_b – bazaviy texnologiya asosida maxsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat;

Z_n – yangi texnologiyalar asosida maxsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat;

N_n – yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi;

S_b – bazaviy variantdagi maxsulotlarni ishlab chiqarish tan-narxi;

S_n – yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan maxsulot tan-narxi;

K_b – bazaviy variantdagi maxsulot birligi uchun kapital quyilmalar;

K_n – yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan maxsulot birligi uchun kapital quyilmalar;

$Y_{e_{norm}}$ – samaradorlikning normativ me'yori.


Olima tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar, taklif va tavsiyalar yuzasidan shuni qayd etish lozimki, bank faoliyati va undagi texnologik komponentlar samaradorligi birinchi navbatda mijozlarning talabi, qiziqishlari va to'lov qobiliyatiga bog'liq. Shu bilan bir qatorda, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish

¹ О.А.Попова. Управление развитием инновационной экосистемы на основе платформенной концепции. Диссер.на соис.уч.степ.канд.экон.наук. Воронеж 2021.

tizimidagi kamchiliklar innovatsion ekotizimlar faoliyatini barbod qilishi mumkinligi olima e'tiboridan chetda qolgan.

Z.T.Mamadiyarovning “Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish” nomli ilmiy tadqiqot ishida¹ bank xizmatlarini masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi oshirish uchun operatsion xarajatlar barqarorligiga erishish, mijozlarning qanoatlanishi darajasi ko'rsatkichini bank faoliyatiga joriy etish, bank infratuzilmasini moliyalashtirish, risklarni boshqarish kredit amaliyotini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishda maxsus avtomatlashtirilgan rejimni kiritish, bank filiallarida xarajatlarni kamaytirish va to'xtovsiz faoliyatni ta'minlash maqsadida 24/7 rejimida ishlovchi smartofislarni tashkil etish, masofaviy bank xizmatlari ommabopligini ta'minlash va mijozlar sonini oshirish uchun bank xizmatlari bozorini tahlil etishni kuchaytirish borasida taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 1-jadval²



Jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkinki 2023 yil boshiga kelib 2021 yilga nisbatanmasofadan turib bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 295 % ga 2023 yining birinchi yarmida esa 394 % oshgan. Bu ko'rsatkichni joriy yilning 6 oyi davimida kunlar hisobida qaraydigan bo'lsak 9615 tani tashkil etayapti.Bu jarayon

¹ Z.T.Mamadiyarov. “Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish”. Iktisodiyet fanlari b'uyicha falсаfa doktori (PhD) dissertatsiya si avtorеферати. Toshkent 2021.

² <https://cbu.uz/oz/statistics> (Markaziy bank sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi)

bugungi kun mijozlar talabidan kelib chiqayotganligi masalaning bir tomoni bo'lsa ikkinchi tomondan tijorat banklarining mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatishda turli xil ilovalarni keng ko'lamda ommalashib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Masofaviy bank xizmatlari samaradorligini yanada oshirish uchun ta'sir etuvchi omillarning ko'p yadroli ekonometrik modeli ishlab chiqish zarurdir. Mazkur modelda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi kuchli ta'sir etuvchi hamda o'zaro korrelyatsiyaga ega bo'lgan ko'rsatkichlar sifatida masofaviy bank xizmatlarini olish imkoniyati, masofaviy bank xizmatlari tizimida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, xarajatlarni kamaytirishda masofaviy bank xizmatlarining salmog'i, internet tarmog'i tezligi va sifatining masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishdagi ahamiyati ko'rsatkichlari olinsa yanada ommabopligi oshadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida masofaviy bank xizmatlar qo'llanishda sodda va oson bo'lishi lozimligi, aholining oylik to'lovlari uchun "Avtoto'lov" rejimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, amaliyotda ko'plab uchrayotgan omillar, ya'ni turli sabablarga ko'ra ma'lumotlar bazasining ishlamay qolishi, kibertajovuz holatlari, maslahat xizmatlarini ko'rsatishdagi kamchiliklar, aholining turli yosh qatlamlarini, to'lov qobiliyati va boshqalarni e'tiborga olishligi ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислох қилиш стратегияси тўғрисида"ги ПФ-5953-сонли фармони
2. Ўзбекистон Республикасининг "Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида" ги № ЎРҚ-578 Қонуни. 01.11.2019 й.
3. Rustamov M. S. PROBLEMS AND SOLUTIONS RELATED TO THE GROWTH OF BANK LOANS //Стратегические инициативы и практические рекомендации по устойчивому развитию экономики: потенциал и риски. – 2021. – С. 126-131..
4. Рустамов М. Кредитлар ўсишининг муаммолари ва истиқболлари //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 6. – С. 10-24.
5. Abdulazizovich A. A. et al. ISSUES OF BANKING SYSTEM DIGITALIZATION IN UZBEKISTAN //World Bulletin of Management and Law. – 2022. – Т. 11. – С. 14-19.
6. Togayev S., Zayniddinova D. SWOT-THE ESSENCE AND METHODOLOGICAL PROBLEMS OF ANALYSIS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 1003-1008.

7. Bekmurodov A. A. IMPROVING THE INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – C. 355-357.
8. Amriddinovich B. A. Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – T. 7. – C. 27-31.
9. Mahomadrizoevna K. A. THE IMPORTANCE OF BANK LENDING IN THE DEVELOPMENT SPHERE OF TOURIST SERVICES //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – T. 7. – C. 11-17.
10. Togayev S., Xujamurotov S. THE ROLE OF BANK MANAGEMENT IN THE ASSESSMENT OF EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANK'S ACTIVITY //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 12-16.
11. Malikova D. METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2023. – C. 96-98.